

**O'SMIRLARDA AGRESSIV HULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING NAZARIY
ASOSLARI****Jabborov X.****Psixologiya fanlari doktori (DSc)****Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti****Azizova Elnora Adhamjon qizi****Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi magistranti****azizova07e@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14636243>**

Annotatsiya. O'smirlik davri o'ziga xos murakkab davr bo'lib, aksar yoshlar agressiv xulq-atvoriga berilib qolishi tabiiy holatga aylangan. Agressiyaning maqsadi xususan jabrlanuvchiga azob yetkazish hamda agressiyaning boshqa maqsadlarga erishish vositasi sifatida qo'llash hisoblanadi. O'smirlik davrida agressiv xulq ko'rinishlarining tasnifi, korreksion imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: agressiya, ijtimoiy vaziyat, oila, emotsional tanglik, «agressor», «qurbon», gender hususiyat, tajovvuzkorlik.

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, uning yechimini aynan ta'lim va tarbiya bilan yoshlarni shakllantirishimiz kerak ekanligiga amin bo'lamiz. O'smirlardagi agressiya nafaqat pedagoglar va psixologlar, balki butun bir jamiyat uchun birmuncha o'tkir muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, hayotning yuqori ritmi, shaharlarning zichligi, ortib borayotgan axborot vositalari insonlar psixik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. O'smirlar jinoyatchiligining o'sib borayotgan oqimi va axloqning tajovvuzkor shakliga moyil bolalar sonining ortishi bunday xavfli ko'rinishlarni uyg'otuvchi psixologik sharoitni o'rganishni birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida ilgari surdi. Olimlar ta'kidlashicha inson hayotida eng qiyin kechadigan davr bu o'smirlik davridir. haqiqatdan ham bu davr o'ziga xos qiyinchiliklarga boy davr hisoblanib inson uchun o'tish davri deb ham ataladi.

Bu davrda bolalarga ta'lim tarbiya berish, ularga madaniyat degan tushunchasi singdirish, tanbex berish jarayonlari o'ziga xos qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Bu davrda bolalar qayta qurilish davrini yashab o'tadilar. Biz psixologlar fikrimizcha bu davr gormanal o'sish, qayta tuzilish davri deb ham ataladi. Agressiya ta'rifini nira nechta olimlar nazaryalari bo'yicha ko'rib chiqsak:

- R. Beron va D. Richardson bu tushunchaga shunday ta'rif beradi: "Agressiya- lotin tilida "agressio" – "hujum degan ma'noni bildiradi, bu bir jonotga zarar yetkazishga qaratilgan inson xulq-atvorining har xil formasi"

- J. Buss fikricha "Agressiya oqibatida boshqa organizm qandaydir zararli stimulni qabul etish reaksiyasi"dir.

- N. Zilman tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra agressiya boshqalarga tan jarohati va jismoniy jarohatlar yetkazish demakdir. Agressiyaning namoyon bo'lishining ko'plab nazariy asoslari mavjud.

- Zigmund Freyd fikricha agressiv xulq o'z tabiati bo'yicha g'ayriixtiyoriy va muqarrar. Insonda ikkita birmuncha qudratli instinkt mavjud: jinsiy (libido) va o'limga bo'lgan qiziqish (tanatos). Agar tanatos quvvati sirtga yo'naltirilmasa, bu tezda individumning o'zini parchalashiga

olib keladi. Shunday qilib, tanatos bilvosita tajovuzning tashqariga chiqishiga va boshqalarga yo'naltirilishiga ko'maklashadi. Hissiyotlarning tashqi ko'rinishi xavfli harakatlarning namoyon bo'lish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

-K.Lorens agressiya barcha jonli mavjudotlar kabi insonda ham mavjud bo'lgan yashash uchun kurashning tug'ma instinktidan boshlanish nuqtasini oladi. U yashash uchun kurash instinkting manbai bo'lmish agressiv quvvat organizmda to'satdan, doimiy tezlikda, vaqt o'tishi bilan muntazam yig'ilgan yuzaga keladi deydi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak Agressiya –Organizmga ta'sir etuvchi omillar tufayli o'ziga va atrofdagilarga ziyon yetkazish demakdir. Agressiyaning namoyon bo'lishi gender xususiyatlarga ham bog'liq hisoblanadi. O'g'il bolalarda agressiyaning nomoyon bo'lishi 12 yosh va 14-15 yoshlarga to'g'ri kelsa, qizlarda esa bu ko'rsatkichlar 11 va 13 yoshlarga to'g'ri keladi.

O'smirlarda agressivlikning shakllanishiga qator shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi: tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o'z-o'ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilish, kompyuter o'yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o'z-o'zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi; axloqiy omillar: o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o'zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo; ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta'siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o'zgarishi (o'gay ota, o'gay ona va hokazo); o'smirning xulqiy og'ishlar shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi (taqlid fenomeni); ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o'smirning o'zlashtirishiga ota-ona tomonidan o'smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo'yilishi. Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimoli funksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishiga olib keladi.

Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Qachonki bola ota-ona tomonidan inkor etilganligidan charchasa u hammaning diqqat e'tiborida bo'lish va o'ziga mehr talab etayotganini agressiyaga berilish bilan nomoyon qiladi. Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar.

-o'ziga ijobiy baho berishga o'rgatish, xavfsizlikni tekshirish.

-o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash;

-o'ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan g'azabni tuzatish usullarga o'rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga o'rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish;

Nizoli vaziyat hal etilganda jazolanish ham tugaydi. Bundan keyin o'smirlarga qilgan xatolarini ta'kidlash aslo mumkin emas. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki o'smir agressiyasini bartaraf etishning eng maqbul usuli kattalarning o'z-o'zlarini boshqara olishlari, sabr-toqat bilan o'smirlarda o'tish davrini hisobga olgan holda, ularga o'rnak bo'la olishlariga bog'liq. Bunday holatlarda birgalikda biror-bir faoliyatni bajarish tavsiya etiladi. Agar o'smir xatti-harakatlari atrofdagilar hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirsa, u muayyan bir davr ichida

o'zgarishlarga moyillik bildirmasa, psixiatrga murojaat etishlari lozim. Chunki bu holatlarda bosh miyadagi o'zgarishlar natijasida agressiya o'zini-o'zi nazorat qilishning yo'qolishi sindromining oqibati sifatida yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat uchun xavf tug'dirishi mumkin.

References:

1. Abduqodirova D., Pardaboyeva M. THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS'DECISION-MAKING //INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES. – 2024. – T. 1. – №. 7. – C. 27-30.
2. Abdusamatova, S. (2023). Some aspects of self-development and self-knowledge, and effective assessment methods. *Science and innovation*, 2(B5), 420-423.
3. Sh.Umarova 2024. Psychological Features Of Workers And Factors Affecting Them. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 52–63.
4. X.Raximova 2024. Current Role And Requirements Of Digital Pedagogy. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 38–51.
5. Zukhra Mirzotilloevna Radjabova. (2023). Features Of Adolescent And Teacher Cooperation In The Current Period In Choosing A Profession. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 210–215. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/131>
6. Ozodqulov, O. . (2024). VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Центральноазиатский журнал академических исследований*, 2(10 Part 2), 37–41. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajar/article/view/38469>
7. Zilola Dilmurodova. (2024). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 27, 1–4. Retrieved From <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1092>
8. Avlayev, O.; Mirqosimova, H. (2023). O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini o'rganish usullari. *Maktab va hayot*, 3(157), 4-7.10.
9. Saodat, Y. (2023). Clarification of professional awareness in future educators. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 185-188.11.
10. Eshnayev N. J. 2024. THE INFLUENCE OF THE DISCRIMINATORY APPROACH ON THE MOBILE AND FLEXIBLE CHARACTERISTICS OF LEARNERS AND THE FACT THAT IT IS A FACTOR OF LOW LEARNING. *Web of Teachers: Inderscience Research* . 2, 6 (Jun. 2024), 216–220.
11. Samarova, S. R. (2024). Features of personality and professional abilities of a teacher of a preschool educational organization. *European Science Methodical Journal*, 2(6), 393-397.
12. Norova,N.O.,&Bekmatov,B.D.(2021).Etnikpsixologiya va milliy psixologik qiyofa. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1262-1270.
13. Burteshova,A.B. (2023). Agresiv hulq atvorning gender farqlari. *Перспективыразвития*, 1 (1),354-360.12.